



## INTELLEKTIDA MUAMMOLARI BO'LGAN ZAIF ESHITUVCHI BOLALARNING PREDMETLI AMALIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH METOD VA VOSITALARI

*Abduraxmanova Sh.B.*

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti*

*Pedagogika fakulteti, Maxsus pedagogika kafedrasi  
o'qituvchisi*

**Tayanch so'zlar:** korreksion mashg'ulot, kar bolalar intellektida muammolari bo'lgan zaif eshituvchi bolalarlar, ta'lim va tarbiya, faoliyat, sifat, samaradorlik, pedagogik jarayon.

**Ключевые слова:** коррекционная подготовка, глухие дети с интеллектуальными проблемами, образование и воспитание, активность, качество, эффективность, педагогический процесс.

**Key words:** correctional training, deaf children with intellectual problems, education and upbringing, activity, quality, efficiency, pedagogical process.

### **Резюме:**

Maqolada intellektida muammolari bo'lgan zaif eshituvchi bolalar yoshlarning mustaqil hayotda o'z o'rni va mavqeiga ega bo'lishi va jamiyatga samarali uyg'unlashuvi uchun ijtimoiy ko'nikma ega bo'lishi yoritilgan.

### **Резюме:**

В статье подчеркивается необходимость приобретения слабослышащими детьми с ограниченными интеллектуальными возможностями социальных навыков, чтобы молодые люди могли занять свое место и позицию в самостоятельной жизни и эффективно интегрироваться в общество.

### **Summary:**

The article highlights the need for hearing-impaired children with intellectual disabilities to acquire social skills in order for young people to have their place and position in independent life and effectively integrate into society.

Hozirgi kunda maxsus maktablarda intellektida muammolari bo'lgan zaif eshituvchi bolalar uchun differensial ta'limni ta'minlashi, korreksion ishlarning ustivor yo'nalishlarini belgilab berishi zarur. Har bir o'quv fani o'z maqsadi va vazifalariga ega bo'libgina qolmay, balki o'ziga xos tashkil etilish hususiyatiga egadir.



Mazkur bolalarning ta'limi fanlarning o'zlashtirilishi bilan bog'liqdir. O'quv fanlarining samarali egallanishida nutqiy zaxiraning o'rni beqiyosdir. Biroq kar bolalar nutqni maxsus tashkil etiladigan jarayon va yondashuvlarsiz egallay olmaydilar. Shu bois ularning ta'limida hamda ijtimoiy hayotga tayyor bo'lishlarida korreksion mashg'ulotlarning ta'siri juda kattadir.

Korreksion mashg'ulotlar o'quvchilarda mavjud nuqsonlar keltirib chiqaradigan ikkilamchi kamchiliklarni bartaraf etish va yumshatishga qaratiladi. Ushbu jarayonga zamonaviy yondashuvlarni olib kirish masalasi hozirgi kunda maxsus pedagogikaning dolzarb masalalaridandir.

Mazkur toifa bolalarning umumiy rivojlanishi sog'lom bolalarniki kabi kechsada, qator o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Ular:

- ko'rib idrok etish tezligining pastligi bois predmetlarni idrok etish va tanib olishda chalkashliklarga uchraydilar. Masalan, rangi va shakli har xil bo'lgan bir xil narsani anglatgan buyumni ajratishda qiynaladilar;

- taqlidning sekin shakllanishi, shuningdek namunaga qarab tanlashda qiyinchiliklarni xis qilishi tufayli ular doim tashqaridan qo'llab-quvvatlashni kutib turadilar. Masalan, rasmni tanlab, joyiga qo'yishda avval o'qituvchiga qaraydi va to'g'ri qilayotganiga ishonch hosil qilsagina harakatni boshlaydilar;

- nutqning yo'qligi va nutqqacha muloqotning kamligi kuzatiladi.

Dars va korreksion mashg'ulotlarda bolalar atrof-olamdagi predmet va hodisalar, predmetlarning tuzilishi va ularning vazifalari haqida tasavvurlarga ega bo'ladilar. Bundan tashqari inson va hayvonlarning hayotiy faoliyati haqida dastlabki ma'lumotlarni o'zlashtiradilar.

Rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalarni mehnatga o'rgatishda mehnat ta'limining yangi yo'nalishda nomlanishi «Ta'lim sohasi» va «Texnologiya» tushunchalarining uyg'unligi bilan tavsiflanadi.

Mehnat darsi mazmuni ishlab chiqarish, buyum tayyorlash, ish qurollaridan foydalanish, vaqtni taqsimlash, natijalarni oldindan ko'ra bilgan holda ishni rejalashtirish kabi vazifalarni ko'zda tutishi uning izchillik, ketma-ketlilik, natijalarning kafolatlanishi, inson(o'quvchi)-vaqt-texnika(jixozlar, ashyolar, tayyorlsh usul va vositalari) tushunchalarining integratsiyasini ifodalovchi "Texnologiya" nomi bilan atalishiga asos bo'ldi.

"Mehnat ta'limi" ning "Texnologiya" deb nomlanishi uning integrativ ta'lim yo'nalishi ekanini anglatadi. Hozirgi kunda bu fan mazmuniga o'quvchilarni mehnat bozorida raqobatbardosh kadr sifatida tayyorlashga yo'naltirilgan zamonaviy yondashuvlarni singdirish ehtiyoji tug'ilmoqda. Ma'lumki, intellektida muammolari bo'lgan zaif eshituvchi bolalar yoshlarning mustaqil



hayotda o'z o'rni va mavqeiga ega bo'lishi va jamiyatga samarali uyg'unlashuvi uchun ijtimoiy ko'nikma va malakalar talab etiladi.[6]

Masalan, o'z kuni va ishlarini rejalashtirish, yaqin va uzoq muddat uchun maqsad belgilash va unga erishish yo'llarini topish hamda tanlash, o'z-o'zini baholash, o'zini nomoyon qilish, o'zida mavjud muammolardan (eshitmaslik va uning oqibatida nutqning yo'qligi yoki og'zaki so'zlashish imkoniyatiga ega bo'lmaslik) uyalmaslik, o'zining kundalik ehtiyojlarini aniqlashtirish va ularni qondirish choralari ko'rish kabilar intellektida muammolari bo'lgan zaif eshituvchi bolalarlarning sog'lom kishilar orasiga uyg'unlashib ketishi hamda turli munosabatlarda faol ishtirok etishlari uchun zarur ko'nikmalar hisoblanadi.

Aynan mehnat darslari jarayonida bu ko'nikma va malakalarning shakllanishi uchun keng imkoniyat yaratiladi. Texnologiya darslari intellektida muammolari bo'lgan zaif eshituvchi bolalar o'quvchilarda ijodkorlikni rivojlantirish, ularni buyum va uni tayyorlash jarayonini loyihalashga o'rgatishni nazarda tutadi. Ushbu darsning biz ishlab chiqqan tavsiyalar asosida tashkil etilishi natijasida quyidagi natijalarga erishildi:

1. Ushbu darsda o'quvchilar faoliyatining nafaqat mehnat va texnik jihatlarini, balki iqtisodiy va ekologik jihatlarini yoritishga ehtiyoj kuchaydi. Chunki hozirgi kunda o'quvchilarga moddiy va ma'naviy manfaatdorlik mohiyatini tushuntirish masalasi dolzarb sanalmoqda. Intellektida muammolari bo'lgan zaif eshituvchi bolalar muntazam davlat qaramog'ida yashab, ta'lim olishga moslashgani bois, maktabni bitirgandan keyin ham shu kabi ko'maklarga muhtojlik sezmoqdalar.

Bu holatning bosh sababi maktab ta'limi davrida intellektida muammolari bo'lgan zaif eshituvchi bolalarga mehnat qilish va unga haq olish yo'llari yetarlicha o'rgatilmayapti.

Bundan tashqari darslarda o'quvchilarga tayyorlagan buyumning hayotdagi o'rni va undan foydalanishning turli yo'llari haqida zarur ma'lumotlar berilmagan. Mehnat ta'limi darslarida o'quvchilarni iqtisodiy, huquqiy, ekologik bilimlar bilan qurollantirishda treninglar, mashqlar, taqdimotlardan foydalanish ijobiy natijalarga erishish imkonini berdi.

2. Texnologiya darslarida turli axborot va zamonaviy texnologiyalardan foydalanishga e'tibor qaratildi. Masalan, buyum tayyorlashga oid videolavhalar namoyish etish o'quvchilarning darsga qiziqishini oshirdi. Bundan tashqari oddiy qo'l telefonlariga o'quvchilarning buyum tayyorlashi va u haqida so'zlab berishi, ish yakunida xisobot berishi va boshqa jarayonlarning tasvirga olinishi



o'quvchilarda o'z-o'zini nomoyon qilish, o'z-o'zini baholash, o'z-galar ishini tahlil qilish kabi ko'nikma va malakalarni rivojlantirish imkonini berdi.

3. Mehnat darsida ijtimoiy masalalar–oila qadriyatlari, milliy va o'lkashunoslik, mintaqaviy an'analar hamda urf-odatlarining o'quvchilar ongiga singdirilishiga erishish imkoniyati kengroqdir. Masalan, qishloq xo'jaligi, maishiy xizmat mehnati orqali o'zi va oila a'zolari uchun foyda keltirish hamda halol mehnat orqali farovon hayot kechirishning ilk harakatlari mehnat darslari jarayonidan boshlanadi.

Sog'lom bolalar kabi intellektida muammolari bo'lgan zaif eshituvchi bolalar ham jamiyatning turli munosabatlarida ishtirok etish ko'nikmalarini oila va ta'lim muassasalarida egallaydilar. Biroq aksariyat oilalar mazkur toifa bolalarni avaylab, o'z vaqtida kerakli jarayon (jamoaga yaqinlashtirish, o'ynatish, turli faoliyatlarni birga bajartirish, uy yumushlarini taqsimlash, o'z-o'zini boshqarish va nomoyon qilish)ga jalb qilmaydilar.[4]

Natijada kar bola maktab ta'limiga jalb etilganida bog'chaga kelgan sog'lom boladek mustaqil o'z-o'ziga xizmat va oddiy murojaatlarga o'rgatiladi. Sekin-asta umumyashaydigan joy qoidalari va tartibini o'zlashtiishga kirishadilar. Bundan tashqari ular qator o'quv fanlari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni egallaydilar.

Intellektida muammolari bo'lgan zaif eshituvchi bolalar o'quv fanlari talablarini sog'lom boalarga nisbatan uzoq muddatda va maxsus tayyorlangan o'quv materiallari orqali egallaydilar. Buning uchun maxsus maktab-internatlarida umumta'lim maktablaridan farqli maxsus korreksion mashg'ulotlar qo'shimcha tashkil etiladi. Korreksion mashg'ulotlar o'quvchilarning birlamchi va ikkilamchi nuqsonlarini bartaraf etish uchun xizmat qiladi.

Texnologiya fani umumta'lim fanlari sirasiga kirsa-da, biroq mazmunan va tashkiliy jihatdan korreksion mashg'ulot ko'rinishiga egadir. Shuning uchun ham intellektida muammolari bo'lgan zaif eshituvchi bolalar maktablarining boshlang'ich sinflarida o'ziga xos nomga ham ega, ya'ni "Predmetli amaliy faoliyat". Ushbu fanga 1-sinflarda xaftasiga 3 soatdan, 2,3,4-sinflarda 4 soatdan ajratiladi.

Ko'rinib turibdiki, "Texnologiya" faniga ajratilgan soatlar xajmi umumta'lim maktablariga nisbatan maxsus maktab-internatlarda ushbu fan o'ziga xos tashkil etilishidan dalolat beradi. Aynan mehnat ta'limi jarayonida intellektida muammolari bo'lgan zaif eshituvchi bolalar ham mehnat, ham nutqiy harakatlar tizimini egallaydilar. Natijada intellektida muammolari bo'lgan zaif eshituvchi bolalar o'quvchilarda qator ijtimoiy ko'nikmalarni jadal rivojlantirish uchun zamin yaratiladi.



“Predmetli amaliy faoliyat” fani intellektida muammolari bo‘lgan zaif eshituvchi bolalar maktablarining boshlang‘ich sinflarida asosiy fanlardan biri bo‘lib, unda o‘quvchilarning aqliy, nutqiy, jismoniy imkoniyatlaridan har tomonlama optimal foydalanish uchun sharoit yaratiladi.

“Predmetli amaliy faoliyat” darsi o‘z mazmunida ham tilga o‘rgatishning, ham mehnat fanining talablarini aks ettiradi. Shu bilan bog‘liq holda ushbu darsda nutqiy muloqotning ustivorligi mehnat ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali ta‘minlanadi. Ma‘lumki, intellektida muammolari bo‘lgan zaif eshituvchi bolalar atrof-dagi narsa va hodisalar haqida o‘ziga xos tasavvurga ega bo‘lib, ularni amaliy egallaydilar. [6]

O‘quvchilar “Predmetli amaliy faoliyat” darsi orqali atrof-muhit haqidagi bilimlarni, hayotiy tajribalarni o‘zlashtiradilar. Tabiat va jamiyatda shunday tushunchalar mavjudki, ularni bevosita tushuntirishdan ko‘ra, tayyor ko‘rgazmali holatda o‘quvchilarga yetkazish qulaydir. Shunday qilib, intellektida muammolari bo‘lgan zaif eshituvchi bolalar o‘quvchilarning jamiyatga uyg‘unlashuvi uchun zamin bo‘lib hisoblangan holda “Predmetli amaliy faoliyat” darsi quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

1. Umumta‘lim fanlarini egallashda muhim bo‘lgan lug‘at zaxirasi (tushuncha va tasavvurlar)ni shakllantirish.

2. Tilni tafakkur quroli va muloqot vositasi sifatida egallashga o‘rgatish.

3. Ta‘limning tarbiyaviy ahamiyatini oshirish.

4. O‘quvchilarning kasbgacha tayyorgarligiga zamin yaratish.

5. O‘quvchilarda ijodkorlikni va loyihalashtirish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Xulosa qilib aytganda, ushbu fan bo‘yicha tuzilgan dasturda o‘quvchilar egallashlari kerak bo‘lgan bilim ko‘nikma va malakalarni har bir chorak uchun alohida ajratib berilgani o‘quvchilar tomonidan egallanishi lozim bo‘lgan tushunchalar zaxirasini nazoratga olish imkonini beradi. Bu o‘z navbatida o‘quvchilar egallashi kerak bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malakalarning aniq ko‘rsatkichlarini ifoda etadi.

Natijada o‘quvchilarning ushbu fan bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarini joriy, oraliq va yakuniy baholash uchun tayyor topshiriqlar mazmunidan foydalanishga erishiladi. Har bir mavzu bo‘yicha ish turlari alohida ajratib berilgan bo‘lib, ular ikki bosqichda amalga oshiriladi. 1-bosqich o‘qituvchi tomonidan, 2-bosqich tarbiyachi tomonidan amalga oshiriladi.

O‘quv yili boshida o‘qituvchi va tarbiyachi birgalikda har bir mavzuning tegishli qismini yillik rejasida belgilaydi. Tarbiyachi o‘qituvchining ishini mantiqan va tizimli davom ettiradi.



O'qituvchi va tarbiyachi har bir dars davomida egallanishi zarur bo'lgan majburiy va amaliy nutqiy materiallarni ko'rgazmali ravishda tayyorlashi talab etiladi. Bu jarayon murakkab va ashyoviy ta'minot talab qiladi. Lekin ushbu jarayon ostida jamiyatning to'laqonli a'zosi – kar, zaif eshituvchi bola taqdiri yotibdi. Chunki ushbu bolalarga har bir aniq, mavhum tushunchalarni berish ko'rgazmalilik va tabiiylikni talab qiladi.

#### Adabiyotlar:

1. Kalbaeva. H. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar bog'langan nutqini o'stirish yo'llari. – T.: «Reliable print», 2010.
2. Kobilova Sh.X. “Bezbarernaya sreda” i vozmojnosti yee formirovaniya v inklyuzivnom obrazovanii // Diversity Research: Journal of analysis and trends Volume 1, ISSN (e): 2810-6393. Выпуск 4, Iyul 2023 G. str. 1-5
3. Kobilova Sh.X. Vvedenie v teoriyu "inklyuzivnogo rasprostraneniya" approach to inclusive education and its prospects // Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities Volume 20, July , 2023 –PP. 24-27.
4. Noskova L.P. Metodika razvitiya rechi doshkolnikov s narusheniyami sluxa. – M.: Gumanitarnyy izdatelskiy sentr «Vlados», 2004.
5. Nurkeldieva D.A., Turg'unboev S.F. Eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning mehnat ta'limini takomillashtirish, uzviyligi va uzluksizligini amalga oshirishning dolzarb muammolari. // «Zamonaviy ta'lim», 2015, 11-son. -42–48-b.
6. Qodirova F. Kar va zaif eshituvchi bolalar maktablarining 1-4-sinflari uchun talablar. – T.: RTM, 2015.
7. Surdopedagogika. / Pod red. Nikitinoy M.M. – M.: «Prosveshenie», 1989.